



MINTAQAVIY IQTISODIY TENGSIZLIK: SABABLARI VA OQIBATLARI

Qarshi Davlat Universiteti o'qituvchisi
U.E.Eshmaxmatov

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiy tengsizlikning mohiyati, vujudga kelish sabablari hamda uning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari tahlil qilinadi. Mintaqalarning notekis rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan bandlik, infratuzilma, investitsiya va daromadlar bo'yicha farqlar O'zbekiston misolida ko'rib chiqiladi. Maqolada statistik ma'lumotlar va amaliy misollar asosida iqtisodiy tengsizlikning asosiy omillari — tabiiy resurslarning notekis taqsimlanishi, investitsiyaviy muhitdagi farqlar, infratuzilmaning rivojlanish darajasi, va hududiy boshqaruvdagi tafovutlar kabi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, ularni izchil va muvozanatli rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy siyosat yuritishda hududiy yondashuvni takomillashtirish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. Mintaqaviy iqtisodiyot, Hududlararo tengsizlik, Iqtisodiy rivojlanish tafovutlari, Iqtisodiy tengsizlik sabablari, Ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar, Infratuzilma va investitsiyalar, Ichki migratsiya, Rivojlanayotgan mintaqalar, Davlat siyosati va hududiy rivojlanish, O'zbekiston mintaqalari, Resurslar taqsimoti, Bandlik va daromadlar, Raqamli tafovut (digital divide), Barqaror hududiy rivojlanish, Makroiqtisodiy muvozanat

Abstract. This article analyzes the nature, causes, and socio-economic consequences of regional economic inequality. The disparities in employment, infrastructure, investment, and income levels resulting from uneven regional development are examined using the example of Uzbekistan. The study identifies the main factors contributing to economic inequality — such as unequal distribution of natural resources, differences in investment environments, infrastructure development, and disparities in regional governance. The article also offers recommendations for reducing economic disparities between regions and ensuring balanced and sustainable regional development. The findings of this research have practical significance for improving regional economic policy.

Keywords. Regional economy, Interregional inequality, Economic development disparities, Causes of economic inequality, Socio-economic consequences, Infrastructure and investments, Internal migration, Developing regions, State policy and territorial development, Regions of Uzbekistan, Resource allocation, Employment



and income, Digital divide, Sustainable territorial development, Macroeconomic balance

Аннотация. В данной статье анализируются сущность, причины и социально-экономические последствия регионального экономического неравенства. На примере Узбекистана рассматриваются различия в уровне занятости, инфраструктуры, инвестиций и доходов, вызванные неравномерным развитием регионов. В работе выделены основные факторы, способствующие экономическому неравенству, такие как неравномерное распределение природных ресурсов, различия в инвестиционном климате, уровень развития инфраструктуры и территориального управления. Также предложены рекомендации по сокращению экономических различий между регионами и обеспечению сбалансированного и устойчивого развития. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования региональной экономической политики.

Ключевые слова. Региональная экономика, Межрегиональное неравенство, Различия в экономическом развитии, Причины экономического неравенства, Социально-экономические последствия, Инфраструктура и инвестиции, Внутренняя миграция, Развивающиеся регионы, Государственная политика и территориальное развитие, Регионы Узбекистана, Распределение ресурсов, Занятость и доходы, Цифровой разрыв, Устойчивое территориальное развитие, Макроэкономическое равновесие

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot jarayonida mintaqaviy iqtisodiy tengsizlik muammosi ko'plab davlatlar, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Mintaqaviy tengsizlik deganda mamlakat ichidagi turli hududlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish salohiyati, aholi bandligi, infratuzilma ta'minoti va yashash sifati kabi omillar bo'yicha farqlar nazarda tutiladi. Bunday farqlar ijtimoiy adolatsizlik, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishi, ichki migratsiya kuchayishi kabi salbiy oqibatlarga olib keladi.

O'zbekiston misolida olib qarganda, poytaxt va yirik sanoat markazlari iqtisodiy jihatdan tez sur'atlarda rivojlanayotgan bir paytda, ayrim chekka yoki qishloq hududlarida yashovchi aholi hali ham past daromad, ishsizlik va infratuzilmaning yetishmasligi muammolari bilan to'qnash kelmoqda. Bu esa hududlar o'rtasidagi tafovutlarni yanada keskinlashtiradi va davlatning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



Mazkur maqolada mintaqaviy iqtisodiy tengsizlikning asosiy sabablari chuqur tahlil qilinadi, ushbu muammoning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari yoritiladi hamda bu tengsizlikni kamaytirish bo'yicha samarali yo'llar taklif etiladi. Shuningdek, O'zbekiston mintaqalari o'rtasidagi mavjud farqlar statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi va mintaqaviy rivojlanishni muvozanatlashga doir tavsiyalar beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mintaqaviy iqtisodiy tengsizlik muammosi iqtisodiyot fanida uzoq yillardan beri muhokama qilinib kelinayotgan dolzarb mavzulardan biridir. Jahon miqyosida bu boradagi nazariy yondashuvlar, empirik tadqiqotlar va siyosiy takliflar turlicha yo'nalishlarda shakllangan. Xususan, Paul Krugman o'zining nazariyasi orqali mintaqaviy tafovutlarning shakllanishida iqtisodiy markazlashuv va aglomeratsiya effektlari muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, yirik shaharlar va markaziy hududlarda ishchi kuchi va infratuzilmaning to'planishi iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradi. Jeffrey Sachs va William Easterly kabi olimlar esa mintaqaviy tengsizlikni institutsional rivojlanish, hukumat siyosati, va tarixiy omillar bilan bog'laydi. Ular rivojlanayotgan davlatlarda tengsizlikning ko'p hollarda siyosiy boshqaruvdagi nomutanosibliklardan kelib chiqishini ko'rsatadi. World Bank, OECD va UNDP kabi xalqaro tashkilotlar o'z hisobotlarida mintaqaviy tengsizlikni kamaytirishda hududiy investitsiya siyosati, infratuzilmani modernizatsiya qilish, va mahalliy iqtisodiy salohiyatni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu muammoni O'zbekiston ilmiy muhitida ham mintaqaviy iqtisodiy tengsizlik masalasi turli aspektlarda o'rganilmoqda. Xususan, T. Xudoyberganov va M. Yusupov kabi iqtisodchilar o'z tadqiqotlarida O'zbekiston mintaqalari o'rtasida ishsizlik darajasi, daromadlar tafovuti va infratuzilmaviy rivojlanishda sezilarli farqlar mavjudligini ta'kidlaydi. Ular bu tafovutlarni kamaytirish uchun differensial soliq siyosati, mintaqaviy preferensiyalar va infratuzilma loyihalarini hududlar bo'yicha adolatli taqsimlash zarurligini ilgari suradi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR) tomonidan tayyorlangan so'nggi hisobotlarda O'zbekiston mintaqalari o'rtasidagi iqtisodiy farqlar YIM (YAIM) hajmi, investitsiya jalb qilish, va aholi bandligi kabi ko'rsatkichlar asosida chuqur tahlil qilingan. Bu ma'lumotlar tengsizlikni empirik asosda baholash uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti ham mintaqaviy rivojlanishni barqarorlashtirish bo'yicha konseptual yondashuvlarni ishlab chiqmoqda. Ularning yondashuvida hududiy innovatsion salohiyat, ta'lim va kadrlar siyosati, hamda mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlari muhim ahamiyatga ega sifatida ko'rsatilmoqda.



Tadqiqot metodlari: Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy va taqqoslash usullari, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik tahlil, tahlilning mantiqiy va taqqoslash usullari, kompleks yondashuv, ekspert baholash, ko‘p variantli prognoz kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Mintaqaviy iqtisodiy tengsizlikni tahlil qilishda asosiy e‘tibor O‘zbekiston hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar farqlariga qaratildi. Statistik ma‘lumotlar va hududiy iqtisodiy tahlillar natijasida quyidagi asosiy tendensiyalar aniqlanmoqda:

1. Iqtisodiy salohiyatning notekis taqsimlanishi

Toshkent shahri va yirik sanoat markazlari (masalan, Navoiy, Farg‘ona) iqtisodiy faoliyatning markazlari sifatida ko‘p investitsiyalarni jalb qilmoqda. Bu hududlarda sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi va infratuzilma rivojlangan, natijada yuqori darajadagi ish o‘rinlari va daromadlar mavjud. Boshqa mintaqalarda, ayniqsa qishloq hududlarida, bu ko‘rsatkichlar ancha past.

2. Ishsizlik va bandlikdagi tafovutlar

Hududlararo farqlar ish o‘rinlari va bandlik darajasida ham o‘z aksini topmoqda. Rivojlangan hududlarda bandlik yuqori, ishsizlik esa past bo‘lsa, chekka va qishloq hududlarda aksincha — bandlik past va ishsizlik yuqori. Bu ichki migratsiyaning kuchayishiga, urbanizatsiyaning tezlashishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekistonning rivojlangan hududlarida, xususan, Toshkent va Farg‘onada ishsizlik darajasi 5% dan past bo‘lsa, chekka hududlarda bu ko‘rsatkich 12-15% gacha yetmoqda. Qishloq joylarda ish o‘rinlari kamligi, mehnat sharoitlarining qoniqarsizligi, va malakali kadrlarning yetishmasligi mintaqaviy ishsizlikni yanada chuqurlashtirmoqda. Bu esa ichki migratsiya oqimini kuchaytirib, shaharlarning aholi zichligini oshiradi, ijtimoiy va infratuzilma muammolarini yuzaga keltiradi.

3. Infratuzilma va investitsiyalar taqsimoti

Hududlarning infratuzilma holati ham mintaqaviy tengsizlikni chuqurlashtiradi. Asosan, transport, energetika, va kommunal xizmatlarda rivojlangan hududlar o‘z iqtisodiyotini samarali rivojlantira oladi. Boshqa tomondan, investitsiyalarning noto‘g‘ri taqsimlanishi ayrim hududlarda rivojlanishning orqada qolishiga olib keladi. O‘zbekiston hududlariga kiritilgan investitsiyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, umumiy investitsiyalarning 60-70% i Toshkent va atrofidagi viloyatlarga to‘g‘ri keladi. Chekka va qishloq hududlarda esa investitsiyalar kamligi sababli ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklangan. Transport, energetika va kommunikatsiya tarmoqlaridagi kamchiliklar iqtisodiy faollikni pasaytirib, mintaqaviy tengsizlikni kuchaytiradi.

4. Ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlar



Mintaqaviy iqtisodiy tengsizlik ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Past daromadli hududlarda aholining yashash sharoitlari yomonlashadi, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga kirish qiyinlashadi. Bu esa aholining sifatli bandlikka ega bo'lish imkoniyatlarini yanada cheklaydi va ijtimoiy norozilikni kuchaytiradi. Mintaqaviy tengsizlik ijtimoiy jihatdan ham sezilarli oqibatlariga olib keladi: past daromadli hududlarda ta'lim va sog'liqni saqlash sifatining pasayishi, yoshlarning ish bilan ta'minlanmasligi, kambag'allik darajasining yuqoriligi kuzatiladi. Bu holat mamlakat bo'ylab ijtimoiy norozilik va beqarorlik xavfini oshiradi.

5. Iqtisodiy salohiyat va YIM (YAIM) tafovutlari

O'zbekiston Respublikasi hududlari o'rtasida yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi bo'yicha sezilarli farqlar mavjud. Masalan, 2025 yilning birinchi yarmida Toshkent shahri O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining (YaIM) taxminan 19,6 foizini tashkil etdi shuningdek 2024 yilgi YaIM hajmi 115 milliard AQSh dollariga teng bo'lganini hisobga olsak oshkentning 2025 yil birinchi yarmidagi YaIM ulushi taxminan 22,54 milliard dollarni tashkil etadi, bu esa hududlararo iqtisodiy markazlashuv darajasining yuqoriligini ko'rsatadi. Qashqadaryo, Namangan, Andijon kabi viloyatlar YAIM hajmi bo'yicha Toshkentdan ancha orqada qolmoqda, bu esa iqtisodiy faoliyat markazining tor hududlarga to'planganini anglatadi.

Bu tafovutlarning sababi sifatida quyidagi omillar ajralib turadi:

Investitsiyalarning asosan yirik sanoat va xizmat ko'rsatish markazlariga yo'naltirilishi;

Raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi;

Mehnat bozorining diversifikatsiyalanmaganligi va sanoat tarmoqlarining hududiy muvozanatining yo'qligi.

Xulosa va takliflar. Mintaqaviy iqtisodiy tengsizlik O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy salohiyatning notekis taqsimlanishi, investitsiyalar va infratuzilmaning markazlashuvi, shuningdek, ish o'rinlari va daromadlarning hududlar o'rtasidagi keskin tafovutlari mintaqaviy tengsizlikning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Bu holat o'z navbatida ijtimoiy muammolarni – ishsizlik, kambag'allik, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatining pasayishini keltirib chiqaradi.

Mintaqaviy tengsizlikni kamaytirish uchun hududlarga investitsiyalarni adolatli taqsimlash, infratuzilmani yaxshilash, bandlikni oshirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlarini



kengaytirish zarur. Ichki migratsiya oqimlarini boshqarish ham barqaror hududiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega.

Natijada, mintaqaviy iqtisodiy tengsizlik muammosini hal etish mamlakat iqtisodiyotining barcha hududlarini rivojlantirishga, ijtimoiy adolatni ta'minlashga va umumiy iqtisodiy o'sishni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, hududiy siyosatni izchil amalga oshirish davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кругман П. «Geography and Trade». – MIT Press, 1991. – 142 с.
2. Sachs J.D., Warner A. «Economic Convergence and Economic Policies». – Brookings Papers on Economic Activity, 1995. – №1. – P. 1–47.
3. UNDP. «Human Development Report: Regional Inequality and Inclusive Growth». – New York: UNDP, 2022.
4. Всемирный банк. «Развитие регионов: вызовы и возможности». – Вашингтон, 2021.
5. OECD. «Regional Outlook 2020: Leveraging Megatrends for Cities and Rural Areas». – OECD Publishing, Paris, 2020.
6. Худойберганов Т.Ж., Юсупов М.Р. «Мамлакат ҳудудларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш масалалари». – Т.: Iqtisodiyot, 2021. – 180 б.
7. CERR (Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi). «Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlik: tahlil va takliflar». – Tahliliy hisobot, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti. «Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari». – Т.: 2022.
9. Davlat statistika qo'mitasi (stat.uz). «Hududlar kesimida YAIM va aholi bandligi ko'rsatkichlari». – 2023-yilgi ma'lumotlar.
10. Mahmudov B.X. «Iqtisodiyot va hududlar: rivojlanish omillari va muammolar». – Т.: Fan va texnologiya, 2020. – 210 б.